

AMIR TEMURNING HARBIY SOHADA TUTGAN O'RNI

Ibrohimov Otabek Sirojiddin o'g'li

Farg'ona davlat universiteti

Harbiy ta'lim fakulteti 2-bosqich talabasi

Alijonov Bahtiyor Xoshimovich

Farg'ona Davlat Universiteti

Harbiy Talim Fakultiti O'qituvchisi

Ilmiy rahbar

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amir Temurning qanday qilib kuchli qo'shin tuzganligi, janglardabqo'llagan usullari va sarkarda sifatidagi fazilatlari haqida so'z yuritiladi. Uning harbiy tajribasi davlatchilikni mustahkamlashda qanday ahamiyatga ega bo'lgani yoritiladi. Shuningdek, "Temur tuzuklari"da aks etgan harbiy-axloqiy me'yorlar va ularning keyingi davrdagi harbiy tizimlarga ta'siri muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Harbiy san'at, strateg, pedagogik asos, yasol, texnika, adolat, hukmdor, harbiy-akademik litsey, progmatik asos, "Tuzuklar", tajriba, o'nboshi, yuzboshi, mingboshilar, "Tumanbegi" va "Amir ul-umaro".

Amir Temur jahon tarixida ulkan iz qoldirgan sarkardalardan biridir. Uning harbiy iqtidori, qo'shin tuzilmasini mukammal tashkil eta olishi va jang maydonidagi strategik fikrlashi zamonlar osha o'rganib kelinmoqda. Temur davlati qisqa vaqt ichida kuchli, intizomli va tartibli qo'shinga ega bo'lib, Yaqin Sharqdan to Hindistongacha bo'lgan keng hududlarda ta'sir ko'rsatgan. Amir Temur qo'shinining muvaffaqiyati nafaqat son jihatdan ustunlikda, balki jang taktikasini to'g'ri tanlash, harbiy san'atni chuqur tushunish va dushman kuchini oldindan baholay olishda namoyon bo'lgan. Uning harbiy yurishlari nafaqat istilochilik maqsadlariga emas, balki siyosiy barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va madaniy taraqqiyot uchun mustahkam zamin yaratishga xizmat

qilgan. Shuning uchun ham Temurning harbiy merosi bugungi kunda ham tarixchilar, harbiy mutaxassislar va strateglar uchun katta ilmiy qiziqish uyg'otadi.

Bugungi avlod uchun Amir Temur shaxsidagi halollik, jasorat, farosat, matonat, qatiyat kabi ko'plab axloqiy fazilatlar mavjudki, uni o'rganish, amal qilishni foydasi va hikmati ko'p. Jumladan, Amir Temurning vatanparvarlik g'oyalari, qarashlari va da'vatlarini tahlil qilish o'quvchilarni axloqiy ta'lim-tarbiya berish rivoji bilan bog'liq muhim ilmiy xulosalar berishga sabab bo'ladi. Amir Temur faoliyatidagi harbiy- vatanparvarlik tamoyilining mafkuraviy asoslari bugungi kunda yosh avlodni tarbiyalashda pedagogik asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra, Sohibqironning harbiy vatanparvarlikning ahloqiy mohiyatini:

1. Qat'yatli, shijoatli, mas'uliyatli hamda fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan shaxs qilib tarbiyalashda Amir Temur siymosining ma'naviy jasorat ekanligi;
2. "Temur tuzuklari"da Amir Temurning ibratli hayoti va faoliyati Vatan mustaqilligini mustahkamlashning progmatik asosi ekanligi;
3. Yurtimizda va horijda Amir Temurni "Vatanning buyuk xaloskori" sifatida talqin qiluvchi manbalarni o'rganilganligi;
4. Sohibqironning madaniyatli, tafakkur doirasi keng, san'atni, adabiyotni yaxshi tushunadigan, vatanparvar va o'z halqini sevgan shaxs ekanligi kabi axloqiy sifatlar bilan belgilash mumkin .

Amir Temur tuzgan qo'shin ko'plab mamlakatlarni zabt etishda son jihatdan aniq va puxta tashkil etilganligi bilan o'z davrining ko'plab qo'shnlardan ustun turgan. Qo'shinning jangovar holatini belgilab berish va tartibga solish – yasol deb yuritilgan. Sohibqiron tomonidan yasol jangdan-jangga takomillashtirib borilgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollangan, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan, qismlar bir-biridan kiyim boshi, tutgan bayrog'i yoki tug'i orqali ham farqlangan. Amir Temurning harbiy to'qnashuvlarda qo'llagan jang usuli o'z davrining buyuk imperiyalari

Qoraxoniylar, G'aznaviylar, Xorazmshohlar, Saljuqiylar, Chingiziylar qo'shini jangovar tartibidan farqli bo'lib, yetti qism-qo'lga ajratilgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma"sida Sohibqiron harbiy jang usuli yetti qism-qo'l tuzilishi to'g'risida to'liq ma'lumot berilgan. Sohibqiron o'z qo'shini qanotlarini jang chog'ida dushman hujumidan muhofaza qilish va aksincha g'anim kuchlarini yon tomondan aylanib o'tib, unga ortdan zarba berish maqsadida tuzilgan otliq qism-kunbul yoki kumbul, ba'zi manbalarda qanbulning joriy etilishi-harbiy san'at rivojiga qo'shgan ulkan xizmatlaridan biri bo'ldi. Bunday jang usulidan faqat besh asr o'tib, XIX asrning atoqli lashkarboshisi Napoleon Bonapart armiyasining jangovar tartibida qo'shin qanotlarini himoyalovchi qism mavjud bo'lgan.

Amir Temur merosidagi strategik asar "Temur tuzuklari"ning bugungi kundagi ahamiyatiga Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev alohida ahamiyat berdi: "Inson qadr-qimmatini e'zozlash, buning uchun har qanday holatda ham adolatni qaror toptirishga qodir bo'lgan odil sudlov tizimini shakllantirish biz uchun o'tgan ikki yil davomida eng ustuvor vazifaga aylandi. Buyuk sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga "Adolat — davlatning asosi va hukmdorlar shioridir", degan hikmatli so'zni yozdirgani bejiz emas, albatta. Ushbu ulug'vor g'oya inson qadr-qimmatini oliy darajaga ko'tarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylandi", deya bugungi kundagi adolatni barcha sohada keng yo'lga qo'yish siyosatimizning negizi ekanini yana bir bor ta'kidladi. Bu bejiz emas. Chunonchi, bugun dunyoning ko'p davlatlari harbiy siyosatida Amir Temur bobomiz o'gitlari va boshqaruv tuzumlaridan keng foydalanib kelmoqda. Buni bobomiz qo'llagan o'nlab harbiy atamalar bugungi kunda ham ko'plab mamlakatlar harbiy sohasida qo'llanib kelayotganida ham ko'rishimiz mumkin. U xoh oshkora, xoh zimdan bo'lsin, lekin bu — ayni haqiqat. Bundan, albatta, faxrlanamiz. Shu bilan birga, o'zimiz ham bu buyuk merosdan samarali foydalanishimiz kerak. Shu maqsadda Prezidentimiz katta ishlarni boshlab berdi. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi va 2017 yil 5 iyuldagi "O'shlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni bilan yaqin-yaqingacha suvorovchilar deb

nomlanib kelgan harbiy-akademik litseylar “Temurbeklar maktabi”ga aylantirildi. Buning asosi sifatida “Buyuk davlat arbobi va sarkarda sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlari yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilsin”, deyilgan.

“Tuzuklar”ning yaratilgan davri, muallifi, originalligi xususida bahsli mulohazalar mavjud. Bizningcha, asarning yozilish xususiyatiga ko'ra, ya'ni “Amr qildimki”, “Buyurdimki”, “Belgilab qo'ysinlarki”, – kabi iboralarga tayangan holda asar Sohibqironning saltanat va harbiy boshqaruviga oid amr va farmonlari, buyruqlari jamlangan kitob sanaladi. “Tuzuklar”da barcha vazirlarga katta talablar qo'yilgan (ayni damda sipoh, harbiy ishlar bo'yicha vazirga ham tegishli): “Kamolotga erishgan vazir ulkim, davlat muomalalarini tartibga keltirib, mulkiy va moliyaviy ishlarni to'g'rilik bilan, asli-nasli tozaligini ko'rsatib, ajoyib tarzda bajaradi. Olgulik joyidan olib, bergulik yerga beradi. Ruxsat etuvchi va taqiqlovchi buyruqlarida uning aslligi bilan toza naslligi ko'rinib turadi. (Hech kimga) dushmanlik va jabr-zulm qilmaydi. Xoh sipohdan, xoh raiyatdan bo'lsin, har kimning nomini yaxshi so'zlar bilan tilga oladi. Birovdan yomonlik axtarmaydi, aytalar eshitmaydi. Agar birovdan yomonlik ko'rgan bo'lsa, unga nisbatan shunday muomala qiladiki, u (oxiri) yomonligidan qaytadi. O'ziga yomonlik qilgan odamga nisbatan shunday yaxshilik qiladiki, u (oxiri) oldiga bosh egib keladi. Aqlli, bilimdon va hushyor vazir shunday bo'ladiki, agar saltanat ishlarida chigil-jumboq uchrasa, aqlu farosat uni barmog'i bilan uni yechib yuboradi .” Rossiyalik harbiy tarixchi t.f.d. Leonid Bobrov va Rossiya Fanlar Akademiyasi professori V.L. Kvint tadqiqotlarida Amir Temurga “harbiy san'at dahosi”, degan yuksak baho berilgan.

Amir Temur o'z qo'shini va sipohiylarni boshqarish, yangi harbiy yurish usullari takomillashtirish borasida doimiy tarzda fikr yuritgan. Jumladan, “Temur tuzuklari”da shunday keltiriladi: “Kunduzlari tajribali va dono kishilar bilan turli mamlakatlarni zabt etish shatranji ustida bosh qotirdim. Kechalari bo'lsa to'shagimda yonboshlab olib, mamlakat ishlarini qanday yurgizish kerakligi

haqida o'yladim va ularni bajarish vositalarini o'zimcha tasavvur qilib ko'rdim. O'zga mamlakatlarni zabt etish yo'llarini o'z ko'nglimda chamalab, qay tarzda hujum qilib, qanday chekinish mumkinligini belgilar edim. Sipohiylarim bilan qanday muomala qilishim to'g'risida fikr yurgizib, qaysi birini qanday tarbiyat qilishim kerak, qaysi ishni qay biriga topshirsam, xatô qilmagan bo'laman deb, har ishning oldi-ketini o'ylar edim". Yana shuni qo'shimcha qilishimiz joizki Sohibqiron shunday buyuk sarkarda bo'lishiga qaramay hech qachon manmanlikka berilmaganligini yuqoridagi so'zlaridan ham ko'rishimiz mumkin. U nafaqat yangidan-yangi jang usullarini qo'llash bilan bir qatorda, jangni boy berish holatlarida qanday tarzda chekinish va yana jangga kirish kabi holatlarnida doimiy tarzda o'ylab ko'rib ish tutgan.

Qo'shin tarkibi o'nlik - "ayl"- "aylboshi", yuzlik - "xo'shun", "qoshun" – uni yuzboshi – "qoshunboshi", minglik - "hazora"- mingboshi – "mirihazora", o'n minglik – "tuman" tumanbegi, "tuman og'asi" kabi birikmalar va harbiy mansablardan tashkil topgan. O'nboshi, yuzboshi va mingboshilar xalqchil (demokratik) saylov asosida saylangan va "Tumanbegi" va "Amir ul-umaro" esa Sohibqiron tomonidan tayinlangan. Jumladan, "Sipoh saqlab turish tuzugi"ga ko'ra: "Amr qildimki, qachonki asl sipohiylardan ish ko'rgan, jangu jadal bilan suyagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bularning qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqiztasi o'z roziligi va ma'qullashi bilan uni o'zlariga sardor qilib otini o'nboshi deb atasinlar. O'n nafar o'nboshi jam bo'lsa, o'z ichlaridan eng oqilona ish ko'rgan, jang maydonlarida toblanib, tajriba orttirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovni amir qilib, uni yuzboshi deb nomlasinlar. O'nta yuzboshilar yig'ilib, amirzodalardan aqllisi va shijoatli, bahodirini saylab uni mingboshi desinlar va "amiri hazora" deya murojaat qilsinlar ."

Ibn Arabshoh, askarlarni muhoraba maydonida devlarga o'xshatsa, ularning ma'naviy dunyosini esa maloikalarga qiyoslaydi. Nazm:

(Ular) turk jangchilaridan iborat yigitlarki, ularning ovozlari momaqaldir oq tovushini na his qiladi, na sehr qoldiradi. Muqobolada ular husnda maloikalar misoli, Muqotalada ular devlar kabidir.

Amir Temurning harbiy sohadagi o'rni o'z davrining eng ilg'or strateglaridan biri sifatida baholanishi bejiz emas. U qo'shin boshqaruvini markazlashtirish, jangchilarning mas'uliyati va intizomini kuchaytirish, harbiy yurishlarni aniq rejalash kabi ko'plab tamoyillarni joriy etgan. Temur qo'shinining uyushganligi va harbiy tartibning yuqoriligi natijasida qisqa muddat ichida yirik hududlar zabt etildi va kuchli markazlashgan davlat barpo etildi. Uning "Temur tuzuklari" asarida bayon etilgan harbiy va davlat boshqaruvi qoidalari bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, strategik rejalashtirishning muhim tamoyillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Amir Temur yaratgan harbiy tizim nafaqat o'z zamonida, balki keyingi davrlarda ham ko'plab sarkardalar va davlat rahbarlariga o'rnak bo'ldi. Shu bois Temurning harbiy merosi tarixiy, ilmiy va amaliy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.H. Dadaboyev "Amir Temurning harbiy mahorati". Toshkent, Yozuvchi, 1996, 10-bet.
- 2.Ibn Arabshoh.Amir Temur tarixi. 1kitob,220-bet.
- 3.Ma'sul muharrir J. Rahimov "Temur tuzuklari". Toshkent. Shodlik. 2020, 124-bet.
- 4.E. A. Razin. Istoriya voennogo iskustva. Moskva, 1957, 234-bet.
- 5.https://uza.uz/oz/posts/amir-temur-siymosida-harbiy-vatanparvarlik-qiyofasi_555600
- 6.<https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/6900-milliy-harbiy-merosimiz-durdonalari.html>